

**YOSHLAR TAFAKKURIDA IDEALLIK FENOMENIGA DOIR RASIONAL
QARASHLARNI SHAKLLANTIRISH ZAURRATI**

Pulatov Baxodir Abduraupovich

Farg‘ona davlat universiteti

Harbiy ta‘lim fakulteti

Maxsus tayyorgarlik sikli boshlig‘i

Annotatsiya: *Ushbu maqola yoshlar tafakkurida ideallik fenomeniga doir rasional qarashlarni shakllantirish zaurrati tarixiy qadriyatlarning qayta tiklanishi, xalqlarning milliy o‘zligini anglash jarayonining o‘sib borishi natijasida tafakkur tarzida muhim ijobiy o‘zgarishlar haqida yoritilgan.*

Kalitsa’zlar: *Tafakkur, ideal, fenomen, rasional, tarixiy, imkoniyat, falsafa, psixologiya, yoshlar, globallashuv.*

Yangi O‘zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashib, fuqarolik jamiyatining esa tobora rivojlanib borayotganligi real imkoniyat va tarixiy ideal garmoniyasining nechog‘lik qudratga ega ekanligini ko‘rsatib turibdi. Real imkoniyat va tarixiy ideal garmoniyasi har bir millat, davlat taqdirida tarixan aniq namoyon bo‘ladi va davr talablaridan kelib chiqqan holda yangi innovasiyalar bilan boyib boraveradi. Bu esa tarixiy ideallarni reallik bilan uyg‘unlashtirib, tarbiya mexanizmi sifatida foydalanishni talab etadi.

Tarixiy qadriyatlarning qayta tiklanishi, xalqlarning milliy o‘zligini anglash jarayonining o‘sib borishi natijasida tafakkur tarzida muhim ijobiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Hayotimizda sodir bo‘layotgan bu o‘zgarishlar odamlar qalbi va ongiga singib, ularda kelajakka ishonch tuyg‘usini, ozodlik va erkinlik hissini tarbiyalamoqda. Yangi taraqqiyot strategiyasi boy madaniy-ma‘naviy merosimizdan, buyuk ajdodlarimiz yaratgan ma‘naviyat chashmalaridan bahramand bo‘lishimiz uchun keng yo‘l ochmoqda. Bunday tarixiy qadriyatlarga asoslangan tarbiya jarayonini yoshlarga singdirish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Mazkur paragrafda yoshlar tafakkurida ideallik fenomeniga doir rasional qarashlarni shakllantirishning ijtimoiy zarurati, pedagogik asoslari va mavjud xolatini tadqiq etish maqsad qilingan. Bu ishni amalga oshirishdan avval ideal, uning shakllanishi, jamiyatda ideallik tushunchasiga munosabtning yuazaga kelishi va uning ijtimoiy ahamiyatini ko‘rib chiqish, lug‘atlarda tariflanishini tahlil etish maqsadga muvofiqi ish bo‘ladi.

Eng avvalo, «tafakkur» tushunchasining mohiyatini aniqlashtirib olish zarur. «Falsafa: qomusiy lug‘at»da «tafakkur» tushunchasiga quyidagicha ta‘rif berilgan: «Tafakkur (arab. – fikrlash, aqliy bilish) – predmet va hodisalarning umumiy, muhim

xususiyatlarini aniqlaydigan, ular o'rtasida ichki, zaruriy aloqalar, qonuniy bog'lanishlarni aks etadigan bilishning rasional bosqichi» .

Psixologiya fanlari doktori, professor E.G'oziev fikricha, «tafakkur inson aqliy faoliyatining, aqliy zakovotining, ongli harakatining yuksak shakli hisoblanadi. Tafakkur tevarak-atrofni, ijtimoiy muhitni hamda voqelikni bilish quroli, shuningdek, insonning keng ko'lamdagi faoliyatini oqilona amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi» .

Psixolog olim E.Z.Usmonovanning fikricha, tafakkur ijtimoiy hayot sharoitida shakllanadigan jarayon bo'lib, dastavval keng predmetli (amaliy) faoliyat tarzida namoyon bo'ladi, keyinchalik u «aqliy» xatti-harakat xarakterini oluvchi shaklga aylanadi .

Boshqa bir olim Q.Shonazarov «tafakkur» tushunchasining quyidagi ta'riflar majmuini taklif etgan: tafakkur voqelikni inson tomonidan bevosita hissiy idrok qilib bo'lmaydigan ob'ektiv xususiyatlari, aloqalari, munosabatlari bilan ongli ravishda aks ettirilishini bildiradi; tafakkur biror tayyor echimi yo'q muammo paydo bo'lganda boshlanadi. Inson biror narsani bilish ehtiyoji paydo bo'lganda fikrlay boshlaydi; tafakkur ongning voqelikni aniq, chuqur, to'liq va bevosita umumlashtirib va bevosita aks ettirish (bilish)ga qaratilgan faoliyatidir; tafakkur bu inson miyasida predmet va hodisalarning o'z qonuniy aloqalari va munosabatlari bilan umumlashtirib aks ettirish jarayonidir; tafakkur yangilikni qidirish va ochishga sosial jihatdan bog'liq, aloqador, analiz, sintez jarayonida voqelikni bevosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir; tafakkur individni bilvosita va umumlashgan holda aks ettirishga qaratilgan bilish jarayoni; tafakkur ob'ektiv voqelikning faol in'ikosi; bilimlarning tushuncha, mulohaza, fikr, xulosa, nazariya va hokozolar tarzidagi shakllanishi, harakati va rivojlanishidir .

Falsafiy, psixologik va pedagogik adabiyotlarda tafakkurning ikkita turi ajratib ko'rsatiladi: rasional va irrasional. Mazkur tafakkur turlaridan ikkinchisini M.Tojiev va B.Ziyomhammadovlar muroqaba (ichki tuyg'ular) yordamida fikr yuritish deb ataydi. Ularning fikricha, birinchisi ob'ektiv borliqning xususiy tomonini aks ettirsa, ikkinchisi to'liqin jabhasi bilan bog'liq .

Rasional tafakkur miyaning chap tarafida amalga oshirilib, narsa va hodisalarning xususiyatlarini ifoda etadi. Bunda kishi narsa va hodisalarning xususiy tomonlarini qismma-qism his qilib, ularni bir-biriga rasional bog'lab turib anglaydi. Muroqaba yordamida fikr yuritish asosan miyaning o'ng yarim sharida amalga oshirilib, ob'ektiv borliq to'liqinini his qiladi. Bunday tafakkur orqali inson tasavvur qila oladi, hissiyotga beriladi, niyat va ijod qiladi, zavqlanadi, badiiy adabiyotlarni o'qiydi, ilm bilan shug'ullanadi. Bu turdagi tafakkur yordamida inson ob'ektiv borliqni bir butunlik – majmu sifatida his etib, shu butunlikni tashkil qiluvchi qismlar orasidagi zaruriy aloqadorlikni his qila oladi .

Idealning ijtimoiy–falsafiy tafakkur tarixidagi o'rni hamda bu boradagi turli yondashuvlar, tahlillar va talqinlarga murojaat qilib, mazkur muammo XX asrning 60-

yillaridan boshlab xorijiy va O‘zbekiston olimlari faoliyatida ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-estetik ideallar tarzida tadqiq etilganligini ko‘rish mumkin. Xususan, rossiyalik olimlar E.Ilenkov «ideal – oliy qadriyat: u yoki bu hodisani eng yaxshi tugashi; shaxsiy sifatlar namunasi, kishilararo munosabatlar xususiyatlarini belgilovchi namuna, qoida, ideal obraz» degan fikrni ilgari surgan bo‘lsa, A.N. Yassenko idealni insonning ijtimoiy faoliyati bilan bog‘lagan holda maqsadning maqsadidir deb ta’riflaydi.

O‘zbek xalqi o‘zining qadimiy, boy milliy ideallariga ega. Uning ildizlari eramizdan oldingi X asrlarga borib taqaladi. Ko‘hna Sharq og‘zaki ijodining ilk namunalari bo‘lmish Mitra, Ardvisura, Anaxita, Vertragna singari ma’budalarga bag‘ishlangan afsonalarda milliy ideallarning mifologik dastlabki andozalarini Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari orqali esa vatanparvarlik, insoniylik, hamjihatlik, mardlik va jasorat, ilm o‘rganish, kasb-hunar egallashga da’vat, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, halollik, poklik, do‘stlik, sadoqat, kamtarlik, fidoyilik kabi mukammallashgan ideal va g‘oyalar bilan tanishamiz .

Insonning axloqiy-ma’naviy kuchiga ishonish, uni illatlardan, nafsga, shahvatga berilish tuyg‘ularidan xalos qilish, unga hayotdagi azob-uqubatlar mavjudligini ko‘rsatish buddaviylikdagi ijtimoiy-falsafiy jihatdir .

Xalqimizning eng qadimgi yozma yodgorliklarida milliy asosga ega ideallarga katta e’tibor berilgan. “Avesto”, So‘g‘d, O‘rxun-enasoy bitiklari yozma yodgorliklaridagi dalillar ana shu mulohazalarni tasdiqlaydi. Qadimgi yunon donishmandi Pliniy ta’biri bilan aytganda “bir million qo‘shiqdan iborat” bo‘lgan Avestoda din nazariyasi, amaliyoti bilan bir qatorda Movarounnahr va qadimgi Eron xalqlarining tarixi, madaniyatiga oid qimmatli dalillar mavjud .

Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da dunyoning yaratilishi, insonning xalq bo‘lib kamol topishi, ezgulik uchun yovuz kuchlar bilan kurashi, erkinlik, ijodkorlik va bunyodkorlik yo‘lidagi orzulari o‘z ifodasini topgan. “Avesto” faqat odamnigina emas, balki bir hovuch tuproq, bir qultum suv, bir nafaslik havoning ham muqaddas ekanligi haqidagi kitobdir” . Demak, borliqni, hayotni ulug‘lash, ideallashtirish “Avesto”dagi asosiy g‘oyadir. Natijada Ahura – Mazda “Ezgu fikrat”, “Ezgu kalom” va “Ezgu amal” birligining ideallashtirilgan obrazi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ma’naviy ideal sub’ektning tashqi dunyoga, jamiyat, taraqqiyotiga munosabati, uning ongidagi, sub’ektiv qarashlaridagi ifodasi, insonning gnoseologik tajribasi, ma’naviy-ruhiy izlanishlari mahsulidir. Ma’naviy idealnafaqat inson va jamiyat munosabatlari, xuddi shuningdek, ob’ektning sub’ektivlashish, oddiy tasavvurlarning ideallashtirish jarayonlarining mahsulihamdir.

Bugungi kunda ideal va ijtimoiy reallik o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, o‘zaro ta’sirning me’yori, tarixiy ideal va reallikdagi mutanosiblikning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy hayoti ravnaqidagi o‘rnini o‘rganish va undan metodologik xulosalar chiqarish muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy, yoshlarda ideallarga doir ijtimoiy dunyoqarashni rivojlantirishning dolzarbligi quyidagilar bilan belgilanadi:

Birinchidan, umuminsoniy ijtimoiy idealning muhim tarkibiy qismi bo'lgan, milliy idealning umuminsoniy idealdan oziqlanishi va umuminsoniy idealning shakllanishi, takomillashuvida milliy idealning o'rnini va rolini mustaqillik sharoitida, milliy idealni tiklash, uni yangi mazmun bilan boyitish, uning gumanistik qadrini xalqlaro miqyosda transformasiya qilish amaliyoti orqali, tahlil etishga nisbatan zaruriyatning kun sayin ortib borayotganligi.

Ikkinchidan, ijtimoiy-tarixiy idealning mazmuni va uni harakatga keltiruvchi kuchlarni ochib berish ijtimoiy fanlardagi muhim muammo hisoblanadi. Ijtimoiy-tarixiy ideal va reallikning mazmunini tashkil etuvchi tushunchalarni aniqlash, ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish asosida aniq bir tizimni yaratish, alohida olingan tushunchalar evolyusiyasini ko'rib chiqish, milliy-tarixiy idealni harakatga keltiruvchi kuchlar, ularning tabiatini tahlil etish ahamiyatlidir. Milliy-tarixiy ideal millatning tarixiy takomili bilan barobar rivojlanuvchi hodisa.

Uchinchidan, jamiyatni demokratlashtirish, modernizasiya va isloh etish sharoitida millatning asriy orzu umidlari bo'lgan tarixiy idealga talab bir necha barobar ortib bormoqda. Bu mamlakat ijtimoiy barqarorligini mustahkamlash yo'lidagi islohotlar jarayonida o'z ifodasini topmoqda. Jamiyat taraqqiyoti tarixiy ideal va reallikning o'zaro aloqadorligini nazariy va amaliy nuqtai nazardan yangilashni talab qiladi.

To'rtinchidan, globallashtirish jarayonining kengayib va chuqurlashib borishi umuminsoniy va milliy ideal nisbatini jiddiy tahlil etishni taqozo qilmoqda. Globalizmda umuminsoniylikdan ko'ra ma'lum bir davlat va kuchlar manfaati demokratiya niqobi ostida birinchi o'ringa chiqmoqda, globallashtirishga sub'ektsiz kirib borish, "ommaviy madaniyat" kabilar keng targ'ib qilinmoqda. Shuning uchun bugun globalizm va u bilan bog'liq mafkuralar, ularning zararli oqibatlarini ochib tashlash, milliy-tarixiy idealni mazmunan boyitish, uning joziba kuchini oshiruvchi omillarini yaratishni talab qilmoqda.

Beshinchidan, bugungi kunda ijtimoiy sub'ektlarning intellektual va ma'naviy salohiyatini, ularning ijtimoiy idealni o'zlashtirishi, real hayotda ushbu ideallarning qanday hajm, mazmun va tezlikda amalga oshib borayotganini ko'ra bilish, baholashi, unda o'z ishtirokini ob'ektivlashtirish madaniyatini shakllantirish masalasi tobora dolzarblashmoqda. Tarixiy ideallarni shakllantirish tizimli bilishda va shaxsning fidoiy fuqaro sifatida tarixiy ideallarni hayotiyashtirishiga, yangi ideallarni shakllantirishiga xizmat qiladi.

Demak ma'naviy ideal va reallik o'zaro bog'liq, bahsli va almashinib turadigan dialektik jarayon. Ma'naviy ideal va reallik tipologiyasini tasniflab mohiyatini bugungi kun bilan bog'lagan holda yoritgan: ijtimoiy-siyosiy ideal va reallik; ijtimoiy-huquqiy ideal va reallik; ijtimoiy-axloqiy ideal va reallik; diniy ideal va reallik; badiiy-estetik

ideal va reallik; virtual ideal va reallik; ma'naviy ideal va reallikni asoslab ko'rsatgan. Xullas, ma'naviy ideal – falsafiy ma'noda insonning, turli ijtimoiy guruhlarining maqsadi, qadriyatlari hamda emosional holatidan kelib chiqqan holda hayotga nisbatan aniq va mavhum munosabatda bo'lishi demakdir. Uning aniq xususiyati o'tmish va hozirgi kunga tegishli bo'lsa, mavhum holati ko'proq kelajakka yo'naltirilgan g'oyalarda o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy reallik esa odamlarning onglangan hayotlari, ularning onglangan harakatlarining ichki sifati va yashash tarzining zaruriy sharoitlari sifatida ifodalanadi natijada Ma'naviy ideal va reallik dialektikasida o'z ifodasini topadi.

Fikrimizcha, olib borilgan tadqiqotlarda ijtimoiy idealning irrasional hamda emosional xususiyatlari ifodalangan. Zero, ba'zi hollarda ma'naviy ideal belgilari hayotda real mavjud bo'lmasligi ham mumkin. Ya'ni, u hozirgi zamonda ham, kelajakda ham bo'lmaydi, uning mavjudlik sharti – o'tgan zamon bilan belgilanadi. Shunday qilib, kishilarning ijtimoiy idealga bo'lgan intilishi ularning o'z zamonasidagi odatiy sharoitga sig'maslik, uni tezroq kengaytirish uchun qilingan xatti-harakatidan ham iborat deb qaraladi. O'z navbatida mazkur xatti-harakat uchun namunani ular kelajakdan topolmaydilar, chunki bu murakkab voqelikdagi ibrat tarixiylikni, tajribaviylikni talab etadi. Jamiyat miqyosida idealning reallashuvi innovasion yondoshuvni vujudga keltiradi. Innovasiya – fan yutuqlari va ilg'or tajribadan foydalanishga asoslangan texnika, texnologiya, mehnatni tashkil qilish, boshqaruv sohasida yangilik kiritish. U quyidagi holatlarni o'z ichiga qamrab oladi: yangilikni yaratish, uni o'zlashtirish, tarqatish va takomillashtirish. Innovasiya – inglizcha innovation yangilik kiritish, ixtiro yoki yangilik demakdir. Bunga misol sifatida fuqarolik jamiyatini barpo etishni keltirishimiz mumkin bo'ladi. Zero, bu jamiyat kishilarning erkinliklari va huquqlarini to'la ifoda etishlariga keng imkoniyat yaratadi. Albatta, real hayotda bunga to'la erishib bo'lmaydi, lekin butun insoniyat ana shu ijtimoiy namunaga intilib yashaydi.

Shu sababli ideal va reallikdagi innovasiya ya'ni yangiliklar va ularning funksional amaliyotdagi natijasi o'ta muhim hisoblanadi. Insonlarning mas'uliyat hissini oshirib borish evaziga ideal reallashuvi va hayotiy qadriyatga aylanish imkoniyatlari ortadi. Bu demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, barkamol avlodni shakllantirish O'zbekistonning ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotini ta'minlovchi maqsadlar, ideallar tarzida o'z isbotini topadi.

Globallashuv jarayoni shiddat bilan kechayotgan hozirgi davrda O'zbekiston mustaqil, ochiq va demokratik tamoyillar asosida rivojlanayotgan davlatlarning biri sifatida ushbu voqelik ta'siridan chetda qola olmaydi. Bu muhit keng imkoniyatlar ochish bilan bir qatorda, har bir millat, mamlakat oldiga o'ziga xos muammo, milliylikni, ya'ni milliy ma'naviyat, madaniyat, ahloq va qadriyatlarni saqlab qolish masalalarini qo'yimoqda. Axir, bizni asl o'zbek qilib turgan narsalar, tariximiz, qadriyatlarimiz, dinimiz, axloqimiz, o'zimizga xos andishamiz, orimiz, bizdagi hurmat hissi, mehmondo'stligimizdir.

Globallashuv sharoitida ma'naviy va tarixiy ideallarni tadrijiy ravishda rivojlantirish va undan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu uchun yurtboshimiz “jahon miqyosida globallashuv va raqobat toboro kuchayib borayotgan bugungi zamonda biz dunyoda yuz berayotgan tub o'zgarishlar jarayonida egallab turgan o'rnimizni xolisona va tanqidiy baholashimiz, toboro oshib borayotgan hayot talablariga javob berishimiz, kechayotgan davr bilan hamqadam bo'lishimiz shart” deb bugungi kun va ertangi istiqbolning realligi uchun fuqarolarni ogohlikka va hushyorlikka chorlaydi. Shu ma'noda globallashuv bu hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvidir. Shunday ekan, ma'naviy ideal hayotdagi me'yorlarning yuksak, tasavvuri, mukammal jamiyat obrazidir. Bunday idealni jamiyat qurilishining rivojlanish an'analari bilan reallik mezoni asosida o'lchash jamiyatning o'tmishi va kelajagini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, u mustahkam ijtimoiy-tarixiy rivojlanish siyosati va strategiyasining ustuvorligi bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Harbiy fakultet talabalarini harbiy xizmatga tayyorlashda axloqiy tarbiyani axamiyati. ijodkor o'qituvchi,
2. Sattorovich, a. u. (2023). Harbiylarning kreativ sifatlarini rivojlantirishda ta'limning ahamiyati.
3. Abduraupovich, P. B. (2023). O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 203
4. Sattorovich, A. U. (2023). Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy tamoillari.
5. Mirziyoev Sh. Jismoniy va ma'naviy etuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga etishda tayanchimiz va suyanchimizdir
6. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-tom. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
7. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-tom. - Toshkent: O'zbekiston
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi (22 dekabr 2017 yil)